


NAMANGAN VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar)


Viloyat bo'yicha 2019 yilning yanvar oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 682,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 75,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 38,4 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 607,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 3,4 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 72,6 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,7 foizga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on, Chust, Pop tumanlarida va Namangan.sh qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi (foizda)



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	75263,3	138,4	607303,9	103,4
Namangan.sh	33978,2	127,9	278742,7	103,1
tumanlar:				
Mingbuloq	48,2	56,1	15641,2	102,5
Kosonsoy	140,7	114,8	26739,4	101,5
Namangan	64,6	12,4	17966,4	104,2
Norin	1449,0	90,7	48666,1	102,0
Pop	6397,0	169,4	28257,7	103,5
To`raqo`rg`on	2724,5	65,2	43259,0	104,2
Uychi	69,3	85,9	30121,2	103,4
Uchqo`rg`on	9480,9	358,3	22489,8	103,6
Chortoq	655,4	101,8	29588,1	103,0
Chust	19733,1	176,8	33269,2	107,8
Yangiqo`rg`on	522,3	17,3	32563,2	104,3

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (foizda)



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar oylarida o'tgan yilga nisbatan Viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Namangan shahri (515,9 ming.so`m), Norin (315,4 ming.so`m) va To'raqo'rg'on (210,5 ming.so`m) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Namangan (104,4 ming.so`m), Mingbuloq (128,8 ming.so`m), Kosonsoy (133,2 ming.so`m) va Uychi (146,9 ming.so`m) tumanlarida qayd etilgan.

2019 yil yanvar oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 250,4 ming so`mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 foizga ko'paygan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	250,4	104,4
Namangan.sh	515,9	103,4
tumanlar:		
Mingbuloq	128,8	100,4
Kosonsoy	133,2	99,6
Namangan	104,4	99,4
Norin	315,4	99,8
Pop	162,5	109,6
To`raqo`rg`on	210,5	98,6
Uychi	146,9	101,3
Uchqo`rg`on	191,8	128,9
Chortoq	156,9	101,0
Chust	205,9	124,0
Yangiqo`rg`on	157,0	94,9

2019 yilning o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,2 foizni tashkil etib, 1,4 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar oylariga nisbatan 2,9 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,3 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

NAMANGAN VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar)


Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 143,2 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 3,4 foizga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar oylari yakunlariga ko'ra 118,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga oshdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 83,0 % ni tashkil qilmoqda.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Namangan viloyati	143237,3	96,6	24394,6	74,4	118842,7	102,9
Namangan.sh	72336,0	91,6	4265,4	35,7	68070,6	101,6
tumanlar:						
Mingbuloq	641,1	107,2	11,8	-	629,3	105,3
Kosonsoy	1488,3	107,4	37,1	-	1451,2	104,7
Namangan	3950,9	105,1	41,5	74,4	3909,4	105,5
Norin	317,7	120,5	41,3	-	276,4	104,8
Pop	1946,5	105,1	34,3	-	1912,2	103,3
To'raqo'rg'on	35347,3	97,7	16990,0	92,3	18357,3	103,3
Uychi	3964,5	104,9	0,8	-	3963,7	104,8
Uchqo'rg'on	2236,7	108,7	314,0	137,8	1922,7	105,0
Chortoq	10021,9	105,4	35,7	-	9986,1	105,0
Chust	4316,1	113,6	2590,2	121,0	1725,9	104,0
Yangiqo'rg'on	6670,3	109,1	32,5	-	6637,8	108,6

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (foizda)**



Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`shish sur`ati kuzatildi: Norin -120,5%, Chust-113,6%, Yangiqo'rg'on 109,1% ga tumanlarda ko`paydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo`limi
Tel.:69-227-84-76 (78)